

**SUMBUL KOVRAK (FERULA SUMBUL) O'SIMLIGINING
DORIVORLIK XUSUSIYATI VA GENETIK TAHLILI**

Ergasheva Navro'za Abdullaxon qizi

O'ZMU Jizzax filiali "Biotexnologiya" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Mamatkulova Iroda Ergashevna

O'ZMU Jizzax filiali "Biotexnologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

E-Mail: ergashevanavroza46@gmail.com

Annotatsiya: Mavzu asosan, Sumbul Kovrakning o'sishi, uning foydali xususiyatlari. Genetik tahlilini o'rganish. Sumbul kovrak tabiatda dorivor o'simliklar sirasiga kiradi. Bugungi kunda sumbul kovrakni yo'qolib ketishi bilan bog'liq. Uni ko'paytirishga qaratiladi. Bu o'simlikni o'stirish va rivojlanishi uchun bir qancha chora tadbirlar o'tkazilgan. Plantatsiyalari yaratilgan.

Kalit so'zlar: Sumbul Kovrak, xususiyati, tabiati, genetik tahlili, dorivorlik ahamiyati.



Kovrak asosan qumliklar, cho'llar, adirlar va tog'oldi hududlarida o'suvchi sassiqlik kovrak o'simligining bo'yi 1.0-1.5 metrgacha yetadi, uning yo'g'on ildizi, tuproqning 1.5 metr chuqurligigacha kirib boradi. Shakli silindrsimon, bochkasimon yoki tuxumsimon bo'lishi mumkin. Bu o'simlikning poyasi tik o'suvchi, ichi biroz g'ovak, yuqori qismidan shoxlangan, asosan bir genertiv novda hosil qilib 7-9 yilda bir marotaba gullab, urug'lab keyin nobud bo'ladi. Barglari,

yumshoq, tez so'liydirgan, ustki tomoni tuksiz, pastki qismi esa biroz tukli, ildiz bo'g'zidagilari qisqa, yo'g'on bandli, poyadagilari maydaroq bo'lib, uchki qismdagilari faqat barg novini hosil qiladi. Ildiz bo'g'zidagi barglarning shakli piramidasimon, barg plastinkasi ikkilamchi qirqilgan, barg bo'laklari lansetsimon, chekkalari tekis bo'lib, uzunligi 14-18, eni 5-7 santimetr ga yetad. Poyadagi barglar yuqoriga qarab maydalashib boradi, eng uchdagilari faqat bargqinidan (novdan) iborat. Kovrak vegetatsiyasini fevral oyining oxiridan boshlaydi. Mart, aprel oyida gullab, mayning oxirida urug'laydi. Mevasi may oyining oxiri va iyun oyining birinchi yarmida pishib yetiladi. Urug'lar yetilgach, hasharotlar, qushlar va shamol yordamida tarqaladi. Kovrak tarkibida efir moylari, smola (elim), uglevodlar va boshqa biologik faol moddalar mavjud. Tibbiyotda ishlatiladigan yelim-smola tarkibi efir moylari, unga qo'lansa hid beruvchi organik sulfidlar, pinen va terpenoidlar, kumarin va boshqa birikmalardan iborat. Kovrak ildizidan qirqish yo'li bilan ajratib olingan yelim-smola kina, asafetida, sapagen, al'banum, sumbul, ammoniakum kabi turli nomlar bilan qadimdan tibbiyotda keng qo'llanilib kelingan.

Ma'lumki dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% dorivor o'simliklar xomashyosidan tayyorlanmoqda. Ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham farmatsevtika sanoatini jadallik bilan rivojlanishi bunday korxonalarining dorivor o'simliklar xomashyosiga bo'lgan talabni keskin ortishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi "Respublikada kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish xamda eksport qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-361 Qarori asosida kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash uyushmasi tashkil etilgan.

Kovrak - (Ferula) turkumi selderdoshlar (soyabonguldoshlar) Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik o't o'simligi. Kovrakning yer yuzida 160 dan ziyod turlari, O'rta Osiyo respublikalarida 104, mamlakatimizda esa 50 turi uchraydi. Smola - yelim olishda sassiq kovrak, Kuhiston kovragi kabi turlari ishlatiladi. Kovrak respublikamizning Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston respublikasining qumli cho'llar, adirlar, tog'lar va tog'oldi yalangliklarda, soz tuproqli yerlarda o'sadi. Tabiatda sassiq kovrak (Ferula assafoetida L.) keng tarqalgan bo'lib, yelim-smola asosan shu turdan olinadi. Bu Dorivor o'simlik Tabobatda bemor organizmiga ijobiy ta'sir etuvchi biologik faol modda hisoblanadi. Dorivor vositalar sifatida o'simliklarning ildizi, bargi, po'stlog'i, guli, mevasi, shirasi va boshqa qismlaridan foydalaniladi.

Ibn Sino bobomiz bu o'simlikka shunday ta'rif berganlar: Kovrak urug'ining qaynatmasi (urug'i xuddi supurginikiga o'xshash malla rang, shakli ham shunga o'xshab ketadi) 3 mahal 50 grammdan ichilsa, ona suti ko'payadi. Shirasiga anjir qo'shib yeyilsa, sariq (gepatit) kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo'shib, yomon sifatli yaralarga surilsa, foyda qiladi. Soch to'kilishiga ham o'ta foydalidir.

Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k-yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Ilmiy meditsinada kovrak yelim-smolasi – "assafetida" nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (nastoyka) holida og'riq qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi va ko'pgina davlatlar farmokopeyasiga kiritilgan. Sharq mamlakatlarida Eron, Pokiston, Afg'oniston va Hindiston kovrak shirasi va ildizi oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida, kosmetika sanoatida attorlik vositalari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Sumbul — shilimshiq ferula (*Ferula moschata*, ilgari *F. sumbul*), soyabondoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Ildizi qalin, bir necha poyasi bor, balandligi 50 sm gacha, barglari qattiq, bazal uzun petiolat, uch marta pinnatally bo'linadi. Sumbul — O'rta yer dengizi va O'rta Osiyo atrofida o'sadigan o't. Ildiz va yer osti poyasi (rizom) dori tayyorlash uchun ishlatiladi. Odamlar sumbulni astma, bronxit, mushaklarning spazmlari va boshqa maqsadlarda qabul qilishadi, ammo bu foydalanishni tasdiqlovchi yaxshi ilmiy dalillar yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati:

1. В.П. Печеницын. Репродуктивная стратегия некоторых видов *Allium* подрода *Melanocrommyum* (Amaryllidaceae) Растительные ресурсы. – Санкт-Петербург, 2017. –Т 53 №2. – С 210-219.

2. Уралов А.И. В.П. Печеницын. Структурные особенности и возрастные изменения клонов *Allium stipitatum* Regel (Alliaceae) Ботанический журнал. – Санкт-Петербург, 2018. – Т 103. №1 – С. 94-110.

3. М.Д. Тургунов, В.П. Печеницын, Н.Ю. Бешко, Д.А. Абдуллаев, Уралов А.И. Биологические особенности редких видов семейства Iridaceae Juss. флоры Узбекистана в условиях *ex situ* Acta Biologica Sibirica, 2019, 5(2), P.17-22.

4. Д.Т. Хамраева, О.К. Хожиматов, А.И.Уралов. Рост и развитие *Ferula tadshikorum* Pimenov в условиях интродукции Acta Biologica Sibirica, 2019, 5(3), P.172-177.

5. Uralov A.I., Turakulova V.Kh., Esankulova D. S., Dusmuratova F.M. Intrapopulation Variability and Options of Reproductive Strategy of *Allium* Bulbous Species (Amaryllidaceae) Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias Vol. 11 No. 3 (2021)1646-1655pp.

6. Уралов А.И., Печеницын В.П. Зависимость семенной

продуктивности луковичных видов *Allium L.* от количества листьев на генеративном побеге. Доклады АН РУз. 2015. 74-77 с.

7. SSSR florası. 30 jildda / Akad rahbarligida va bosh muharrirligida boshlangan. V. L. Komarova; Ed. B. K. Shishkin jildlari. - M.-L.: SSSR Fanlar akademiyasining nashriyoti, 1951. - T. XVII. - S. 121. - 390 b. - 3500 nusxa.

Dudchenko L. G., Kozyakov A. S., Krivenko V. V. Achchiq-aromatik va achchiq ta'mli o'simliklar. - K.: Naukova Dumka, 1989. - 304 p. - 100 000 nusxa.
— ISBN 5-12-000483-0